



## ONA TILI DARSLARIDA BO'SH O'ZLASHTIRUVCHI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI



**Jo'rayeva Zebiniso Atoyevna**

*Buxoro Kogon tuman 15-maktabning  
ona tili va adabiyot o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada ona tili darslarida bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashda interfaol metodlarning ahamiyati haqida ma'lumotlar bayon etilgan. Shuningdek, o'quvchilarning darsslarni samarali o'zlashtirishlari uchun interfaol metodlardan foydalanish yo'llari, uslublari haqida tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Interfaol, innovatsiya, pedagogika, modul, tanqid, metod, ona tili, ta'lim tizimi, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar.

Hozirgi vaqtida ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Shuningdek ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lismining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchini faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari izlab topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funktsiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lislariini ta'minlaydi.

Yangi pedagogik texnologiyalarga bag'ishlangan adabiyotlar va maqolalarda bir qator o'qitish usullari haqida so'z yuritilmoqda. Bu usullar innovatsion metodlar sifatida taqdim etilmoqda. Shulardan ona tili darslarida bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan qo'llanishi mumkin bo'lgan ayrim metodlar xususida so'z yuritamiz.



1. Modulli ta`lim texnologiyasi. Bu o`quvchilarda darslik, ilmiy-ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi. Modulli ta`lim texnologiyasining o'ziga xos jihat o`rganilayotgan mavzu bo'yicha o`quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlariga imkon beradigan modulli dastur tuzishdir.

2. Hamkorlikda o`qitish texnologiyasi, uning asosiy g'oyasi o`quv topshiriqlarini va faqat birgalikda bajarish emas, balki o`quvchilarini hamkorlikda o`qishga o`rgatadi, ular o`rtasida hamkorlik, o`zaro yordam va fikr almashinishi vujudga keltirish.

3. Muammoli ta`lim texnologiyasi. Muammoli vaziyat yaratish, savollar qo'yish, masalalar va topshiriqlarni taklif qilish, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtirish va xulosalar to`g'riliqini tasdiqlashdir.

4. Interfaol metod texnologiyasi. O`quvchilarning ijodkorligiga tayanish, darsda erkin bahs-munozara sharoitini tug'dirish. Buning uchun sinf kichik guruhlarga bo`linadi va dars davomida shu guruhlar bilan ishlanadi.

5. Didaktik o`yinlar texnologiyasi. Dars jarayonida turli didaktik o`yinlarni qo'llash va ular orqali darsda jonlanish, faol harakat va qiziqish uyg'otish.

O`qituvchi va o`quvchining hamkorlikdagi faoliyati bu darsni interfaol darsga aylantiradi. O`qitishning yangi interfaol shakllari – ta`lim-tarbiya masalalarini unumli yechishga, o`quvchilarning bilish faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan o`quv mashg'ulotlarini takomillashtirish yo'llaridan biri. Xorijiy davlatlar tajribasida sinovdan o'tgan bu metod ya`ni interfaol metodga ko`ra darslar bir necha bosqichga bo`linadi: Ular chaqiriq, aqliy hujum, anglash, fikrlash kabi bosqichlardir.

1. Chaqiriq bosqichi. Bu bosqichda o`quvchilarni faollashtirish, mavzuning mazmun – mohiyatiga kirib borish, uni his etish, anglab yetish jarayoniga tayyorlash kabi maqsadlar ko'zda tutiladi. Bunda o`qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob berish jarayonida o`quvchilar o`zaro fikr almashadi.

2. Aqliy hujum bosqichi. Bu usul darsning boshlanishida yoki istalgan joyida qo'llanishi mumkin bo'lib, u muamoni o'z g'oyalari, fikrlarini aytish yo'li bilan hal qilishdan iborat. Masalan, o`qituvchi sinf taxtasiga til so'zini yozadi va o`quvchilardan "Ushbu so'z sizlarda qanday tessavvur hosil qildi yoki shu so'zni yana qaday talqin qilsa bo'ladi?" – deb so'raydi. O`qituvchi o`quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni sinif taxtasiga quyidagi tartibda yozib borishi mumkin: O`qituvchilarning fikrlari noto'g'ri deb topilmasligi lozim aksincha, o`qituvchi iloji boricha o`quvchilarga yordam berishi noto'g'ri fikr aytib qo'yishdan cho'chimaslikka da'vat qilishi, oxirida esa bildirilgan fikrlarning har birini o`qituvchi tahlil qilib berishi kerak.

3. Anglash bosqichi. Bu bosqichda aqliy hujum bosqichidagi mavzuga oid bahs-munozara natijasida yuzaga kelgan xulosaviy fikrlar eshitilib, o`qituvchi tomonidan yangi fikrlar bilan to'ldiriladi. Savol-javoblar orqali mavzu mustahkamlanadi.

4. Fikrlash bosqichi. Bu bosqichda o`quvchilarga mavzu yuzasidan o'zlashtirgan bilim va tushunchalarni qisqa jumlalarda yozma ravishda bayon qilish topshirig'i beriladi. Bu topshiriqni bajarishda o`qituvchi o`quvchilarni 3-7 kishidan iborat





guruhlarga bo`ladi va ularga bir varoq qog'oz tarqatadi. Masalan, "So`z – gaplar" mavzusi yuzasidan o`qituvchi har bir guruhga so`z – gaplarning o`ziga xos 3 ta xususiyatini aniqlash vazifasini topshiradi va bu topshiriqqa ma'lum bir vaqt ajratadi. Guruhdagi o`quvchilarning har biri o`z fikrini aytadi. Bir o`quvchi esa fikrlarni yozib boradi. O`quvchilar guruhlarda topshiriq bilan band bo`lgan vaqtida o`qituvchi sinf bo`ylab yurib, barchani kuzatadi va topshiriqqa izohlar beradi, yordamga zaruriyat sezayotganlarga yordam ko`rsatadi. Vaqt tugagandan so`ng hammaning e`tibori sinf taxtasiga jalg qilinadi. Har bir guruhdan bittadan vakil (taqdimotchi) sinf taxtasi oldiga chiqib, guruh bajargan vazifani butun sinf oldida taqdim qiladi. Har bir taqdimot baholanib boriladi. Hamma guruhlar ishlarini yakunlagandan so`ng o`qituvchi ularga izoh beradi, xatolari bo`lsa to`g'irlaydi va xulosalaydi, guruhlar ishiga umumiyo baho beradi.

Interfaol dars turlaridan har bir o`qituvchi unumli foydalanib, o`quv ta`lim faoliyatining kuchayishiga katta ta`sir o`tkazishi, o`quvchilarning bilimlarni mustaqil egallash qobiliyatlarini, tanqidiy fikrlash malakalarini o`stirishga va har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida kamol topishlariga ko`makdosh bo`lishlari kerak. Ta`limda interfaol metodlarni qo`llashdan asosiy maqsad – o`qituvchining o`z pedagogik xazinasini qayta ko`rib chiqishiga yordamlashish, yanada yuqori sifatli metodik yo`nalishga intilishini hosil qilish, kelgusi o`ylar, izlanishlar, tajribalarga undashdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Makhmudov, K. (2020). Ways of Forming Intercultural Communication in Foreign Language Teaching. Science and Education, 1(4), 84-89.
2. Makhmudov, K. (2020). Current Problems of Teaching English and New Approaches to Resolve in Secondary Education Schools. Modern Trends in Linguistics: Problems and Solutions, 271-273.